SHARQ XALQLARI MUSIQASIGA G‘ARB OHANGLAR OQIMINING IJODIY UYG‘UNLASHUVI

Yunus Rajabiy nomidagi O‘z.MMSI
“Maqom xonandaligi” kafedrasi dotsenti
Boltaboyeva Ma’suma Nosirovna

Annotatsiya: *Musiqa san’ati Sharq xalqlari madaniyatida shakllanib rivoj topganligi va uning ijodiy ta’siri tarixdan ma’lum. G‘arb madaniyatining o‘ziga xos rivojlanganligi esa, hozirgi zamon musiqa san’ati yutuqlaridan ilg‘ab olish mushkul emas. Natijada, musiqa san’ati ijodiyotida G‘arb musiqa san’atiga intilish, o‘xshatish, madaniyatiga ergashish kabi munosabatlar yuzaga keldi. Har bir xalq o‘zining milliy musiqa san’ati bilan birgalikda, ularga asoslangan g‘arbona musiqa ijodiyotini shakllantirdilar.*

Kalit so’zlar. *Sharq, madaniyat, musiqa, san’at, G‘arb, folklyor, xalq, kompozitor, ijod, kamer, ansambl.*

Аннотация: *Становление музыкального искусства в культуре народов Востока и его творческое влияние известны из истории. А особенность западной культуры в том, что опережать достижения современного музыкального искусства не составляет труда. В результате в создании музыкального искусства возникла такая взаимосвязь, как стремление, подражание, следование культуре западного музыкального искусства. Каждый народ, наряду со своим национальным музыкальным искусством, формировал на их основе западное музицирование.*

Ключевые слова*. Восток, культура, музыка, искусство, Запад, фольклор, фольклор, композитор, творчество, пояс, ансамбль.*

Annotation*: it is known from history that the art of music took shape and developed in the culture of the peoples of the East, and its creative influence. In contrast, the distinctive development of Western culture is not difficult to advance from the achievements of contemporary musical art. As a result, there were attitudes in musical creativity such as striving for Western musical art, impersonating, following their culture. Each nation, together with its national musical art, formed a Western musical creation based on them.*

Keywords. *East, culture, music, art, West, folklore, folk, composer, creation, chamber, ensemble.*

Kirish. Bugungi kunga kelib san’at sohasini rivojlantirish borasida muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev shunday deydilar: “Men shoir va adiblar, rassomlar, aktyorlar va rejissyorlar, musiqachilar, kompozitoralar, ommaviy axborot

vositalarining vakillari bilan doimiy muloqotda bo‘laman. Shu bois to‘la ishonch bilan ayta olamanki, ular o‘z kasblariga ona Vatanimiz, halqimizga juda sodiq insonlardir. Ular ish sharoiti yoki moddiy ahvoli haqida hech qachon shikoyat qilmaydilar. Eng muhimi, ular el-yurtimiz rivoji uchun chin dildan hizmat qilishni istaydilar”[1].

Mazkur masalalar aynan Xuddi shuningdek, O‘zbekiston Respubliqasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g’risidagi PF-60-sonli , 2021-yil 26-martdagi “Ma`’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risidagi PQ-5040-sonli qarori, ushbu sohani rivojlantirish Davlat nazoratida ekanligidan dalolatdir. Mamlakatimiz madaniy faoliyatida yana bir ulkan yangiliq bo‘ldiki, bu ham bo‘lsa madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g’risidagi qonunni qabul qilinishi bilan bog’liq holda namayon bo‘lmoqda.

O‘zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta’lim-tarbiya ishlarini oqilona yo‘lga qo‘yish, yoshlarni zamonaviy ilm-fan, madaniyat, texnika yutuqlari bilan muntazam tanishtirib borish katta ahamiyat kasb etadi. Chunki kelajak taqdirini ma’naviy jihatdan yetuk, irodasi bakuvvat, zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatga ega kadrlar hal etadi. Ilm-fan, madaniyat, ma’rifat har kanday mamlakatni yuksaklikka ko‘taradi, uning taraqqiyotini ta’minlaydi, yeng muhimi ilm-ma’rifat insonni komillik sari yetaklaydi.

Yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda, maktabda o‘qitiladigan barcha fanlar qatori, nafosat tarbiyasining, tarkibiy qismi bo‘lgan, musiqa madaniyati darslarini ahamiyati katta.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Musiqa inson his - tuyg’ularini, orzu - istaklarini o‘ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va bolaning hissiyotlariga faol ta'sir ko‘rsatadi. Ta’kidlab o‘tish joizki, ma’naviy-ahloqiy barkamollik, insoniy komillik bizga ota-bobolarimizdan o‘tib kelayotgan bebaho me’rosdir. Aslida insonning eng olijanob va muqaddas burchi – Vatanga, millatga fidoiy bo‘lib xizmat qilishdir.

Tabiiyki, yoshlarning ma’naviy dunyosini shakllantirishda tarixiy va milliy ma’naviy omillar bilan birga Vatanparvarlik ruhidagi qo‘shiqlarning kuchi va ahimyati kattadir. O‘zbekiston mustaqillikga erishgach, davlatimiz rahbariyati tomonidan qo‘shiqchilik san’ati rivojiga, ayniqsa Vatanparvarlik ruhidagi qo‘shiqlarga katta e’tibor berilib kelmoqda.

Musiqiy milliy cholg’ularimiz orqali yoshlarninig nafaqat Vatanga bo‘lgan muhabbat his tuyg’usini, tafakkurini tarbiyalaymiz, balki ko‘plab o‘quv-pedagogik va badiiy – ijodiy masalalarni hal yetishimiz mumkin. Vatanparvarlik ruhidagi asarlar badiiy tafakkur, hissiy ta’sirchanlik rivoji doirasida talabalar uchun juda foydali

[1]Shavkat Mirziyoev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz”/ Toshkent “O’zbekiston”/ 2017

materialdir. Ular ijrosida talaba yirik shakldagi keskin xarakterlardagi obrazlarni ifodalashni, butun musiqiy boylikni va ta'sirchanlik imkoniyatlarini ishlatmoqni o'rganadi. Vatanparvarlik asarlari asosida yosh avlodni va jamiyatni xaqiqiy vatanparvar millat etib, vatan manfaati bilan yashash, uning istiqboli va taraqqiyoti yo'lida fidoiy hizmat qilish va kurashishni tarbiyalash, insonning ongiga Vatan tuyg'usini, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularinin singdirish mumkin.

bolalar kompozitorlari ijodi samarali bo'ldi. Ular sirasiga kiruvchi I. Akbarov, G'. Qodirov, F. Nazarov, D. Omonullayeva singari buyuk o'zbek kompozitorlarining bolalar uchun yozgan asarlari nafaqat bolalar, balki umumiy o'zbek musiqasi uchun ham bebaho xazinaga aylandi.

Tadqiqot metod va uslublari. Musiqa azal-azaldan insoniyat hayotida hamroh bo'lib kelgan va insonning ma'naviy va madaniy, g'oyaviy va ahloqiy tarbiyasida bosh tarbiyachi rolini o'tagan. Bugun ham musiqa hayotimizda ma'naviy va madaniy, ahloqiy tarbiyani joriy qiladigan asosiy omillardan biridir. Yigirmanchi asrning o'rtalariga kelib folklor namunalariga talab oshgani natijasida folklor namunalarini to'plash, ularni yozib olish, notaga tushurish masalalari dolzarb muammoga aylandi. Respublikamiz musiqasi namoyondalari bu yo'lda, o'zbek musiqiy folklori rivojlanishida o'zlarining ulkan hissalarini qo'shdilar. Uzoq yillar davomida qilingan harakatlar natijasida o'tgan asrning 50-60-yillarida bir nechta folklor ekspeditsiyalari tashkil qilindi va ular tomonidan shu kungacha og'izdan og'izga o'tib, og'zaki tarzda tarqalib, shakllanib kelgan folklor namunalari qog'ozga yozib olinib, keng ommaga taqdim qilindi.

Ushbu folklor ekspeditsiyalari tarkibiga kirgan I. Akbarov, F. Karomatov singari musiqashunoslar turli viloyatlarda bo'lib, har bir hududning folklor namunalarini to'plab, yozib olishga muvaffaq bo'ldilar. Qadimgi MArkaziy Osiyoning antik madaniyati, uning ko'pgina o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash orqali ushbu atoqli olimlar folklor musiqasini o'zganishning o'ziga xosligini, cholg'u ijrochiligida sof mahalliy uslublarning ahamiyatini ko'rsatib berdilar

Barkamol inson, komil inson tarbiyasida musiqaning, qo'shiqning kuchi va axamiyati kattadir. Musiqa sohasining azaliy qadriyatlardan zamonaviylik mezonlariga bo'lgan jarayonlarni faqatgina ohanglarda muhrlangan betakror asarlardangina anglash mumkin. Buning esa ko'lami juda keng, ularni tasavvur ham qilish mushkul. Chunki, har bir xalqning o'z ma'naviyati, ma'rifati, estetikasi bo'lib, hayot degan jarayonda milliy hamda mahoratli omillar bilan sug'orilib kelingan. Buning negizida ikki ulkan tafakkur yo'nalishlari, ya'ni xalq ommaviy musiqasi va tafakkurning individual ijodiy munosabatlarining mahsuli o'rin olgan. Musiqa san'atining azaliy an'analari Sharq xalqlari madaniyatida shakllanib rivoj topganligi hamda butun bashariyatga ijodiy ta'sir etganligi, fanda o'z ijobatini topgan. Hayot taraqqiyoti jarayonlarida, G'arb madaniyatining o'ziga xos kamol topganligini esa, hozirgi zamon musiqa san'ati

ko‘lamidan ilg‘ab olish mushkul emas. Buning negizida musiqa san’ati va uning ichki unsurlarini professionallik darajada umumlashish bosqichlarini o‘tashi, bu jarayonda mutanosib tovush pardalarini uyg‘unlashtirish hamda barcha barobar qabul qilishlari kabi mezonlar, umumbashariyat musiqa san’atining go‘zal uyg‘unlashishiga olib kelganligini e’tirof etish lozimdir. Natijada, musiqa san’ati ijodiyotida G‘arb musiqa san’atiga intilish, o‘xshatish, madaniyatiga ergashish kabi munosabatlar yuzaga keldi. Har bir xalq o‘zining milliy musiqa san’ati bilan birgalikda, ular asoslangan g‘arbona musiqa ijodiyotini shakllantirdilar. Buni, ilk bosqichlarini taqlidiy munosabat ekanligiga ham shubha yo‘q. Lekin zamon va makon, mafkura va siyosat, qolaversa, zamonaviy ijodiy munosabatlar yangi yo‘nalishlarni vujudga kelishini ta’minlab beradi.

Xulosa. O‘zbek xalq musiqa san’ati o‘zining milliy jarayonlarida o‘ziga xos va mukammal darajada shakllangan betakror xalq va mumtoz musiqa merosiga ega.XX asrga kelib, bu ijtimoiy hayot so‘qmoqlarida va musiqa madaniyatimizda yangi yo‘nalish joriy etila boshlandi. Bu ana shu g‘arb musiqa madaniyatining negizida musiqa ijodiyotini kamol toptirish edi. Qayd etish joizki, har qanday musiqa xalq madaniyatining rivojiga xizmat qilsa, albatta amaliyotda o‘z ijobatini topadi. XX asrga kelib o‘zbekistonda ham yevropacha tafakkur oqimining ta’siri sezila boshlandi va zamonaviy musiqaning kompozitorlik ijodiyoti ko‘rinishida amaliyotda qaror topa boshlandi. o‘zbek musiqa ijodiyotining XX asr 50-80-yillar davrida, kompozitorlik ijodiyoti va ijrochilik amaliyoti keskin rivoj topadi. Yirik sahnaviy asarlar - opera, balet va musiqali drama va komediyalar, vokal-simfonik (romans, syuita, kantata va oratoriya) musiqa, simfonik musiqa (simfonik syuita, simfonik poema va simfonik uvertyuralar), kamer-cholg‘u musiqalari janrlarida skripka, violonchel, truba, fleyta, ovoz uchun konsertlar. Kamer-cholg‘u musiqasi janrlarida yakka va ansambllar (torli kvartet) o‘zbek kompozitorlik ijodida jahon andozalariga mos namunalari yaratildi.